

Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендируй



ISSN 2181-7138

№ 1 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕЎОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дустназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкөмлестириўшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПНИИ
Қарақалпақстан филиалы**

**Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сөз хәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириуй» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жууапкер.

Шахмурова Г.А., Тулаганов Д. Д. Вектор и перспективы развития биологического образования в Республике Узбекистан	93
--	----

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙ.ЛЫҚ ТНЙКАРЛАРЫ, ТАРНЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Urazimbetov A. B. Milliy g'urur: anana va innovatsiyalar	100
Abduraxmonova D.K. Muhatriming Bobur portretiga oid qaydlari	103
Мўминов З.О. Ички миграция жараёнларида мигрантлар моддий эҳтиёжи ва кариндош-уруғчиликнинг ўзаро алоқадорлиги	106

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Джумагулов З.У., Бердимбетова А.Д. Бўлажак технологик таълим ўқувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш технологиялари	111
Мухитдинова Ж.Р. Технология дарсларида ўқувчиларни техник фикрлаш қобилиятларини келажак касблари бўйича шакллантириш усуллари	115
Зарипов О.К. Электрон таълим муҳитида интерактив таълим ресурсларини яратишнинг ташкилий тузулмаси	120

БАСЛАЎЧИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТАРБИЯ

Ташибекова М.Х. Бошланғич синф ўқувчиларида ўқув-билув компетенциясини шакллантиришда STEM технологиясининг педагогик хусусиятлари	124
Эргашева Г.Н. Мактабгача таълим ташкилотларида инглиз тилини ўргатишнинг методик таъминоти самарадорлиги	128
Хурвалиева Т.Т. Мактабгача ёшдаги болаларни атроф олам билан таништириш моделининг инновацион тузилмаси ва мазмуни	133
Ergasheva X.Y., Maxsuthodjayev M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining yoshga doir psixologik xususiyatlari	137
Ачилиова С.Ж. Дизартрия нутқ нуқсонига эга бўлган болаларда нутқнинг фонетико-фонематик жиҳатдан ривожланишининг ўзига хослиги	141

ФИЗИКА.ЛЫҚ ТАРБИЯ ҲАМ СПОРТ

Дехкамбаева З.А. Ёшларни жисмоний тарбия ва спорт воситасида тарбиялашнинг хусусиятлари	148
Маматқулов М.Х. Имконияти чекланган ўсмирларда жисмоний сифатларнинг шаклланишида спорт тўғарақларининг аҳамияти	151
Achilov T. S. Kurash falsafasi va uning pedagogik ahamiyati	154

KURASH FALSAFASI VA UNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

*Achilov T.S.**Chirchiq davlat pedagogika instituti Sport va CHHT fakulteti
dekani. Dotsent*

Tayanch soʻzlar: kurash, sport, milliy, qoida, xalqaro, maydon, keng, inson, irodali, sifat, erkin kurash, dzyudo, sambo.

Ключевые слова: кураш, вид спорта, национальный, правило, международный, поле, широкий, человек, воля, качество, вольная борьба, дзюдо, самбо.

Key words: kurash, sport, national, rule, international, field, wide, human, will, quality, freestyle wrestling, judo, sambo.

Oʻzbek kurashining sogʻlom avlodni har tomonlama tarbiyalashda, mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashda, harbiy sanʼatni takomillashtirib borishda ham ahamiyati beqiyos. Taʼbir joiz boʻlsa, oʻzbek kurashi birdam millatni va inoq xalqni shakllantiruvchi tarixiy qadriyatlardan biri. Kurash bu nafaqat ikki sportchi oʻrtasidagi jismoniy bellashuv maxorati, balki yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruxida tarbiyalash vositasi hamdir. Ildizlari teran daraxt baquvvat boʻlib, uzoq yashaydi. Oʻzbek kurashining ildizlari ham chuqur ketgan, tarixi olis oʻtmishga borib taqaladi. Kurashimiz yillar mobaynida mardlik, insoniylik falsafasini targʻib qilib kelgan. Kurash mazmuniga qoidalariga mardlik, halollik, toʻgʻrilik, gʻoliblik va magʻlublikni tan olish, raqibni murabbiylarni, tomoshabinlarni, hakamlarni hurmat qilish kabi sport etikasi va insonparvarlik gʻoyalari singdirilgan. Qoʻllanmaning mazkur boʻlimida kurash sportining ijtimoiy ahamiyati va kurash falsafasi haqida soʻz boradi.

Kurash har bir yoshni oʻz Vatanga muhabbat va mexr-sadokat, fidokorlik kabi insoniy hislatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Kishining oʻzi tugʻilib oʻsgan, kamol topgan joyi, zamini, vatanga boʻlgan mexr-muxabbatini. Munosabatlarini ifoda etadigan, ijtimoiy va maʼnaviy-axlokiy fazilatlarini mashqlar bajarilishi, musobaqalarga tayyorgarlik jarayonlarida shakllantiradi, musobaqa davomida va natijalarida oʻz ifodasini topadi. Kuragi yerga tegmagan oʻzbek kurashchilari bugungi kunda buni yaqqol namoyish etmoqdalar va shu orqali yoshlarga

vatanparvarlik, insonparvarlik namunalarini kursatmoqdalar. Darxaqiqat. Xalqimiz kurashga kishini jismoniy chiniqtirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaragan. Albatta, kurashning bu qadar rivojlanishiga sabab avvalombor, kurash milliy qadriyatimiz boʻlganligi boʻlsa, ikkinchidan, kurash har bir yosh sportchiga, sport muxlislarida kurash falsafasini shakllantirib, ularda ichki ruhiy tarbiyani rivojlantirishda hamda oʻzligini xis etishda ahamiyatlidir. Kurash gʻoyalari tamoyillari adolatli boʻlganligi uchun ham insondagi his-tuygʻuni yuqori darajaga koʻtaradi. Kurash xalqimizning qonida, irsiyatida mujassam boʻlganligi tufayli shaxs maʼnaviy tarbiyasiga bevosita aloqador.

Davlatimiz tomonidan mamlakatimizda barkamol avlod, yoshlarni har tomonlama yetuk va intellektual salohiyatli qilib voyaga yetkazishga ustuvor vazifa sifatida eʼtibor qaratildi. Taʼlim tizimidagi keng koʻlamli islohotlar - Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturil va qator muhim hujjatlar hayotga bosqichma-bosqich tadbiq etilib, sohaning barqaror surʼatlar bilan rivojlanishida, taʼlim samaradorligining oshib borishida mustahkam omil boʻldi.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida yosh avlodni ma'naviy-ahlokiy tarbiyalashda xalqning boy madaniy-tarixiy an'analariga, urf -odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etish kerakligi ko'rsatilgan. Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida yoshlarimiz hech kimdan kam bo'lmay kamol topmoqda. Bunday yuksak e'tibor va g'amxurlikka javoban esa yoshlar fan olimpiadalari, turli ko'rik tanlovlar hamda sport musobaqalari orqali o'z iqtidorini namoyon etishi lozim. Ma'naviy yuksak, ijodiy-intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning, xususan, milliy sport turlarining xususan, kurashning o'rni beqiyos.

Kurashning ko'p asrlik rivojlanish tarixi shundan dalolat beradiki, ajdodlarimiz nazarida kurash, eng avvalo, polvonlarning har tomonlama yetukligi namunasi sifatida sharaf topgan. Polvonlarning jismoniy baquvvatligi, epcchilik jihatlari, davrada o'zini tutishi, axloq-odobi, ma'naviy qiyofasi, raqibiga, gilamga, hakamlarga, tomoshabinlarga munosabati va barcha insoniy hislatlari alohida ko'rinishda o'rin egallagan.

Kurashchilar to'g'risida azal-azaldan rivoyatlar to'qilgan. Polvonlik xalqimizga ko'hna zamonlardan, olis ajdodlarimizdan qolgan ulug' merosdir. Bugun ham ana shu meros milliy qadriyat avlodlar qo'lida e'zozlanmoqda va e'zozlanib qolaveradi. Tarixda polvonlarni el yurt e'zozlab qadrini baland ko'tarib kelgan. Bizning zamonamiz bahodir va himoyachilarimiz bo'lgan polvonlar va botirlarga azaldan boy va xalqimiz ularni mexr bilan parvarish qilib kelmoqda.

Shogird ustozidan so'radi. Agar yiqilganimdan habar topsangiz nima der edingiz?

Tur derdim.

Yana yiqilsamchi?

Yana tur derdim.

Bu holat qachongacha davom etishi mumkin?

Tirik ekansan yiqilaver, o'ringdan turaver. Faqat o'liklarga yiqilib qayta

Turmaydi

Kurash adolatli usul bilan maqsadga erishishni anglatadi. Ma'lumki, mazkur sport turi ko'p asrlar muqaddam O'zbekiston hududida vujudga kelgan. Yunon tarixchisi Gerodotning Tarix hamda Abu Ali ibn Sinoning Tib qonunlaril asarlarida u bilan shug'ullanish inson salomatligini mustaxkamlash, ruhini tetiklashtirishda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritilgan. Binobarin, o'n to'rtinchi asrdayoq Amir Temur o'zining muzaffar qo'shinida jismoniy tayyorgarlik hamda mudofaa qobiliyatini kuchaytirishda kurashdan unumli foydalangan. U paydo bo'lishi bilan eng ommabop sport turlaridan biriga aylandi. Xususan, tuy-yu tomoshalar, Navruz bayramida kurash mashhur ko'ngilochar o'yinlarqatoridan joy olgan. Shu bois uning texnikasi va falsafasi avloddan-avlodga bekamu ko'st o'tib kelayapti.

Kurash falsafasi keng qamrovli va ko'p qirralidir. U jismoniy madaniyatning ma'naviy asoslari masalasi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu borada mamlakatimizning bir qator olimlari izlanishlar olib borganlar. Xususan kurash ilmini o'rganishning falsafiy, ijtimoiy va ma'naviy asoslarini yoritib berish borasida muayyan darajadagi tajriba to'plangan. X.T.Rofiev (Samarqand), U.I.Ibrohimov (marhum), J.Toshpulatov (Surxondaryo), A.K. Atoev (Buxoro) va F. K. Axmedov (Jizzax) kabilar ishlarida kurash falsafasi va

uning pedagogik ahammiyati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Respublika va xalqaro miqyosidagi ko'plab anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda mavzuga tegishli fikr-mulohazalar bildirib o'tganlar. Bu borada akademik J.Tulenov, professorlar M.Murodov, U.Doraboev, I.Jabborov, T.Javliev, X.Homidov, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Imomova, M.Davletshin, F.Nasriddinov, T.Usmoxodjaev, R.Abdumalikov kabilarning ishlari alohida o'rin tutadi. Kurashning rivojlanishi nafaqat yoshlar o'rtasida, balki qariyalar o'rtasida ham tashkil etilishi, shug'ullanuvchilar o'rtasida ma'naviy sog'lom turmush tarzini tarkib toptirishga olib kelmoqda. Kurash bo'yicha murabbiylar tomonidan nafaqat natijalar orqasidan quvish, balki kurash ma'naviyatimizning va qadriyatimizning ajralmas qismi bo'lganligi tufayli ham yoshlar o'rtasida kurash ma'naviyati bosqichma-bosqich shakllantirilib borilmoqda.

Kurashning shaxs tarbiyasidagi o'rni, uning pedagogik ahamiyati yuqori darajada. Mazkur fikrlarni tulaqonli tasdiqlash uchun kurash qoidalarida nazarda tutilgan holatlarni tavsiflash o'rinli. Avvalo kurashchilarning bir-biriga ta'zim qilishlari insoniy fazilatlarining eng muqaddasi bo'lgan hurmat belgisidir. Kurashchilar kurash g'ilamidagina raqib ekanligini bilgani holda bir-birlariga ta'zim qilishadi. Ularning bunday munosabatlari zamidari insonga bo'lgan hurmat mujassamlashgan.

Kurash - sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. Kurashish san'ati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum. Kurash ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, qadimgi olimpiada musobaqalaridan doimiy o'rin olib kelgan. Milliy Kurashning xilma-xil ko'rinishlari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Rossiya, O'zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda mavjud. Bugungi kunda yurtimizda kurash bo'yicha trenerlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni 1,5 ming nafardan ortiqni tashkil etadi. Tahlillar ayrim hududlarda trenerlar sonining umumiy aholi soni bilan yuqori nomutanosibligini ko'rsatmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 1,8 milliondan ortiq aholi soniga nisbatan 179 nafar (0,009 foiz), Toshkent shahrida 2,5 milliondan ortiq aholi soniga nisbatan 39 nafar (0,001 foiz), Andijon viloyatida 3 milliondan ortiq aholi soniga nisbatan 43 nafar (0,001 foiz) kurash treneri to'g'ri kelmoqda.

Zamonaviy sport Kurashining asosiy qoidalari 18-asr oxiri 19-asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqildi. 1912 yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat, O'zbekiston 1993 yildan a'zo). Xalqaro maydonda sport Kurashining yunonrum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o'zbek Kurashi ham alohida Kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olinib boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan Kurash bilan shug'ullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o'zbek turmush tarzining uzviy qismi bo'lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya (O'zbekiston janubiy) hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning Kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham Kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo'lganidan dalolat beradi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (2-3-asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha,

shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o'zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart ko'yish yo'li bilan aniqlashgan va bu shartda Kurash musobaqasi bo'lgan. Bunga o'zbek xalq qahramonlik dostoni - «Alpomish»dagi Barchin shartlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida yozgan: «Kurashning turlari ham bor Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o'z raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortadi, shu bilan birga o'z raqibidan qutulishning chorasini qiladi...». Bu ta'rif zamonaviy Kurash qoidalariga yaqindir. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Alisher Navoiyning «Hamsa», «Holoti Pahlavon Muhammad», Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvat-nomai sultoniy», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida Kurash hakida qimmatli ma'lumotlar bor. 9-16-asrlarda Kurash xalq o'rtasida keng ommalashgan. Shu davrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon qabilar Kurash dovrug'ini oshirishgan.

O'zbek xalq yakka kurashining belbog'li kurash deb nomlangan turi ham bor. Unga ham taalluqli ko'plab arxeologik topilmalar va tarixiy qo'lyozmalar mavjud. Bundan 5 ming yil ilgari davrga mansub qadimgi Mesopotamiya hududidan topilgan haykalchada belbog'li kurash usulida musobaqalashayotgan polvonlar tasvirlangan. Xitoyning qadimgi «Tan-shu» qo'lyozmasida Farg'ona vodiysida to'ylar, sayllar Kurash musobaqalarisiz o'tmasligi yozilgan. Ahmad Polvon, Xo'ja polvon va shu kabi Kurashning ana shu turida shuhrat qozonishgan (19-asr oxiri - 20-asr boshi). Chorizm istilosi va sho'rolar davrida o'zbek milliy Kurashini xalq turmush tarzidan sun'iy ravishda siqib chiqarishga harakat qilindi. 20-asrning 90-yillari oxiriga kelib bu urinishlarga barham berildi.

1991 yilda kurashchilar sulolasi vakili, bir necha Kurash turlari bo'yicha xalqaro miqyosda sport ustasi Komil Yusupov o'zbekcha Kurashning xalqaro andozalarga moslangan quyidagi qoidalarini ishlab chikdi: Kurash tushuvchilar 14x14 m dan 16x16 m gacha bo'lgan, chetroq qismi qizil rangli «xavfli chiziq» bilan belgilangan ko'k-yashil tusli Kurash gilamida tik turgan holatda bellashadilar. G'olib ishlatilgan usullar va maydondagi hatti-harakatlariga qo'yiladigan baholarga qarab aniqlanadi. Kurashda bo'g'ish, raqibga og'riq beruvchi usullar qo'llashga ruxsat etilmaydi, kurashuvchilarning biri ko'k, ikkinchisi yashil rangli yaktak (ayollar yaktak ichidan oq rangli futbolka) kiyadi, belga eni 4-5 sm li tasma (belbog') bog'lanadi, erkaqlar 60, 66, 73, 81, 90, 100 kg va 100 kg dan ziyod, ayollar 48, 52, 57, 63, 70, 78, va 78 kg dan ziyod vazn toifalarida kurashadilar (bolalar, o'smirlar, o'spirinlar, yoshi ulug'lar va qizlar musobaqalarida ham yosh xususiyatlari hisobga olingan holda vazn toifalari belgilanadi). Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA)ning 2003 yil Toshkentda o'tgan kongressi har bir uchrashuvning qizg'in bo'lishini ta'minlash maqsadida rasmiy musobaqalarda bellashuv vaqtini 3 minut qilib belgiladi.

Ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda «chala», «yonbosh», «halol» baholari, qoidaga zid harakatlarga esa «tanbeh», «dakki», «g'irrom» jazolari beriladi. Kurashuvchi «halol» bahosini olsa (yoki raqibi «g'irrom» bilan jazolansa) bu uning g'alabasini bildiradi. Ikki bor «yonbosh» bahosini olish (yoki raqibining ikki bor «dakki» deya jazolanishi) ham g'alabani anglatadi. «Chala» baholari hisobga olib borilib, baho olgan kurashchiga g'alaba beriladi, kurashchilarning baho va jazolari soni teng holatda baho ustunlikka ega bo'ladi, jazolar soni teng bo'lsa oxirgi jazo olgan mag'lub hisoblanadi, agar barchasi

teng (yoki baho va jazo olinmagan) bo'lsa, g'olib hakamlarning ko'pchilik ovozigga ko'ra e'lon qilinadi. 1992 yilda O'zbekistonda kurash federatsiyasi, 2001 yilda O'zbekistonda belbog'li kurash federatsiyasi tuzildi. 1998 yil sentyabrda Toshkentda 28 davlat (AQSH, Boliviya, Buyuk Britaniya, Gollan diya, Rossiya, O'zbekiston, Yaponiya va h.k.) vakillari Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA) muassislari bo'lishdi va shu munosabat bilan bu yerda o'zbekcha Kurash bo'yicha yirik xalqaro musobaqa o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmoni (1999 yil 1 fevral) o'zbek milliy Kurashining yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi. O'sha yili Toshkentda o'zbekcha Kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati, Rossiyaning Bryansk shahrida ayollar o'rtasida xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi. IKA qoshida Xalqaro Kurash akademiyasi, Butun jahon Kurashni rivojlantirish jamg'armasi tuzildi, assotsiatsiya muassisligida «Kurash» jurnali ta'sis qilindi. Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publististik, axborot-reklama yo'nalishidagi bu jurnal Toshkentda 1999 yil oktyabr oyidan buyon nashr etiladi. 2000 yil O'zbekistonda Kurash oyligi o'tkazildi. Bu oylik davomida 2 millionga yaqin kishi Kurash g'ilamiga chiqdi. Buyuk Britaniyada IKA faxriy prezidenti Islom Karimov nomidagi an'anaviy xalqaro musobaqaga asos solindi. 2001 yildan Xalqaro Kurash intituti (Toshkentda) faoliyat ko'rsata boshladi. IKA ga 66 ta milliy federatsiya a'zo bo'lib kirdi (2003). Yevropa, Osiyo, Panamerika va Okeaniya Kurash konfederatsiyalari tuzildi. Hozirgi paytda o'zbekcha Kurash bilan xorijiy mamlakatlarda 600 mingdan ziyod kishi shug'ullanadi. Kurashning bu turi bo'yicha jahon, qita va mamlakatlar chempionatlari hamda birinchiliklari, O'zbekistonda at-Termizi, Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan va boshqa ko'plab xalqaro musobaqalar muntazam o'tkaziladi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 22 ta olimpiada o'rinsosarlari maktabi, 37 ta bolalar-o'smirlar sport maktabi va 206 ta Kurash maktabida sportning bu turi bo'yicha o'quvchilarga tahsil beriladi. Oliy o'quv yurtlarida 100 dan ortiq Kurash to'garaklari faoliyat ko'rsatadi. Kurashchilar bilan 851 nafar murabbiy shug'ullanadi (2003). Osiyo olimpiya kengashi 2003 yilda Kurashning bu turini Osiyo o'yinlari dasturiga kiritdi. Kurash bo'yicha o'tkazilidigan jahon chempionatlarida Bahrom Anazov, Isoq Axmedov, Maxtumquli Mahmudov, Kamol Murodov, Toshtemir Muhammadiyev, Akobir Qurbonov (O'zbekiston), Kubashxonim Elknur, Selim Totar o'g'li (Turkiya), Aleksandr Katsuragi, Karlos Xonorato (Braziliya), Pavel Melananets (Polsha), Xiroyoshi Kashimoto (Yaponiya) va boshqalar g'olib chiqdilar va sovrindor bo'ldilar.

Adabiyotlar:

1. Yusupov K., Kurash, T., 1999; Mo'minov A., Prezident. Sport. G'alaba!, T., 2001.
2. Azizov N.X. Belbog'li turkiston kurashi. - Toshkent: o'qituvchi, 1998.
3. Борисов К. Нра Краха рукопашного боя. Учебное пособия под/рек. М., 2003
4. Salomov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari - Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil - 238 b.
5. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2005 yil - 171 b.
6. Dzyudo kurashi. A.A.Absatarov. A.A.Istomin. Toshkent. Iqtisod-Moliya 1993 yil.

РЕЗЮМЕ

Kurashni yanada rivojlantirish va ommalashtirish mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlarini yoshidan qat'i nazar sog'lom turmush tarziga jalb qilish, yoshlarni Vatanga sadoqatli etib tarbiyalash, kurashni jahon xalqlarining sevimli sport turlaridan biriga aylantirish, uning halollik, adolatlilik, bag'rikenglik kabi insonparvar g'oyalarini dunyo ahliga yanada keng targ'ib qilish, ushbu sohaga investitsiyalarni faol jalb etish orqali uni tijoratlashtirish hamda chinakam o'zbek kurashi brendini ommalashtirishni nazarda tutadi.

РЕЗЮМЕ

Дальнейшее развитие и популяризация спортивной борьбы, привлечение к здоровому образу жизни всех слоев населения, независимо от возраста, воспитание молодежи на верность Родине, превращение борьбы в один из любимых видов спорта народов мира, ее гуманистических представлений о честность, справедливость и толерантность, предполагает более широкую популяризацию мира, его коммерциализацию за счет активного привлечения инвестиций в эту сферу, а также продвижение подлинного узбекского борцовского бренда.

SUMMARY

Further development and popularization of wrestling, involvement in a healthy lifestyle of all segments of the population, regardless of age, educating young people to be faithful to their homeland, turning wrestling into one of the favorite sports of the peoples of the world, its humanistic ideas about honesty, justice and tolerance, suggests a broader popularization of the world, its commercialization by actively attracting investments in this area, as well as the promotion of a genuine Uzbek wrestling brand.

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы
Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ» № 1**
Нөкис — 2022

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Н. Абдукаримов

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 20.01.2022. Форматы 60x84^{1/16}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шэртли б.т. Нашр. т. Нусқасы 2000. Буйыртпа №

«NISO POLIGRAF» ШК босмахонасида босилди.

Тошкент ш., Ҳ. Бойқаро, 51